<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish.....	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников.....	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана.....	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления.....	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения.....	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari.....	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	

TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlari yoritilib, shaxs kamolotida ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqot doirasida zamonaviy ta'lim yondashuvlari, xususan, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari asosida talabalarning axloqiy tafakkurini shakllantirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metod va texnologiyalar ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy ideallar, ma'naviy tarbiya, shaxs kamoloti, nazariy-metodologik asoslar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, oliy ta'lim.

Abstract: This study examines the theoretical and methodological foundations for developing students' spiritual and moral ideals. The philosophical, pedagogical, and psychological aspects of spiritual and moral education are analyzed, with particular emphasis on the role of moral values in personal development. The research explores the potential of modern educational approaches—specifically competency-based and learner-centered education—in shaping students' moral consciousness. Furthermore, the study provides a scientific justification for pedagogical methods and technologies aimed at fostering spiritual and moral ideals within the higher education system.

Key words: spiritual and moral ideals, moral education, personal development, theoretical and methodological foundations, competency-based approach, learner-centered education, higher education.

Аннотация: В данном исследовании анализируются теоретико-методологические основы формирования духовно-нравственных идеалов у студентов. Рассматриваются философские, педагогические и психологические аспекты духовно-нравственного воспитания, а также научно обосновывается роль духовных ценностей в развитии личности. В рамках исследования раскрываются возможности формирования нравственного мышления студентов на основе современных образовательных подходов, в частности компетентностного и личностно-ориентированного обучения. Кроме того, обосновываются эффективные педагогические методы и технологии, направленные на развитие духовно-нравственных идеалов в системе высшего образования.

Ключевые слова: духовно-нравственные идеалы, духовно-нравственное воспитание, развитие личности, теоретико-методологические основы, компетентностный подход, личностно-ориентированное обучение, высшее образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, balki yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglaydigan barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish masalasi jamiyatning barqaror rivoji, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uzviyligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda talabalarning axloqiy ongi, ma'naviy dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki shaxsning kasbiy yetukligi uning ma'naviy-axloqiy ideallari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mas'uliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan, ma'naviy-axloqiy tarbiyani ilmiy asosda tashkil etish, uning nazariy-metodologik negizlarini chuqur o'rganish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari falsafa, pedagogika va psixologiya fanlarida muayyan darajada tadqiq etilgan. Biroq talabalarda ma'naviy-



axloqiy ideallarni rivojlantirishning yaxlit nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, ayniqsa, zamonaviy ta'lim yondashuvlari – kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ ta'lim asosida tizimli tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, ilmiy jihatdan asoslash hamda ularni oliy ta'lim amaliyotida samarali qo'llash yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ma'naviy-axloqiy ideallar tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilish;
- ularning talaba shaxsini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash;
- zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning metodologik asoslarini yoritish;
- samarali pedagogik metod va texnologiyalarni ilmiy asoslash.

Tadqiqot obyekti oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayoni bo'lsa, predmeti talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, shakl va vositalari-dir. Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, ilmiy manbalarni o'rganish hamda umumlash-tirish kabi metodlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda oliy ta'lim muassa-salarida o'quv jarayonini mazmunan boyitishda amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish masalasi ko'p asrlar davomida falsafa, pedagogika va psixologiya fanlarining muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Mazkur muammo shaxs kamoloti, ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liq holda o'rganilgan. Sharq mutafakkirlari asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari yetakchi o'rin tutadi. Xususan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida komil inson g'oyasini ilgari surib, axloqiy fazilatlarini shaxs taraqqiyotining asosiy mezonini sifatida talqin etadi.

Alisher Navoiy asarlarida esa insonparvarlik, adolat, halollik va vijdon tushunchalari ma'naviy barkamol-likning muhim tarkibiy qismlari sifatida yoritilgan. Ushbu qarashlar bugungi kunda ham talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. I.A. Karimovning asarlarida ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida e'tirof etilib, yoshlar tarbiyasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim va tarbiya sohasiga oid qarashlarida intellektual salohiyat bilan bir qatorda ma'naviy yetuklikni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Pedagog olimlardan R.H. Jo'rayev, N.A. Muslimov, B.X. Raximov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasi masalalari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida talabalarining axloqiy ongini rivojlantirish, ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim natijasi sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy olimlar – L. Kohlberg, J. Dewey, E. Eriksonlarning ilmiy ishlari ma'naviy-axloqiy rivojlanishning psi-xologik mexanizmlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi talabalarda axloqiy tafakkurni rivojlantirish jarayonini tushuntirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivoj-lantirishning nazariy-metodologik asoslari alohida tizim sifatida yetarli darajada umumlash-tirilmagan. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va integrativ yondashuvlar asosida ushbu jarayonni takomillashtirish masalasi chuqur tadqiq etilishini talab qiladi. Mazkur holat tanlangan mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar ustuvor tamoyillar sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning falsafiy, pedagogik va psi-xologik asoslari o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.



Tadqiqotning nazariy-metodologik negizini Sharq mutafakkirlarining komil inson haqidagi qarashlari, shuningdek, zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida ilgari surilgan shaxs kamoloti, axloqiy rivojlanish va ijtimoiylashuv nazariyalari tashkil etadi. Xususan, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shaxsning ichki ehtiyojlari va ijtimoiy faoliyati bilan uyg'unlashtirish g'oyasi metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayoni maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar birligida ko'rib chiqildi. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarning axloqiy bilimlari, qadriyatlar tizimi va amaliy xulq-atvorini uyg'un rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabani individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari inobatga olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi: ilmiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so'rovlari, diagnostik metodlar, tajriba-sinov ishlari hamda statistik tahlil. Ushbu metodlar talabalarning ma'naviy-axloqiy ideallari rivojlanganlik darajasini aniqlash, ularning o'zgarish dinamikasini baholash hamda taklif etilgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini asoslash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilib, unda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, interfaol ta'lim metodlari va tarbiyaviy mashg'ulotlar qo'llanildi. Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilinib, ularning ishonchliligi va samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot maqsadiga erishish, ilmiy xulosalar chiqarish hamda talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu insonning ichki dunyosini shakllantirish hamda uning axloqiy qoidalari, e'tiqodlari va qadriyatlariga asoslangan tarbiya jarayonidir. Ushbu tarbiya nafaqat tashqi xulq-atvorni, balki insonning ichki tuyg'ulari, ehtirolari va ma'naviy qadr-qimmatini ham shakllantiradi. Ma'naviy va axloqiy tarbiya insonning dunyoqarashi, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari hamda atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- insoniy qadriyatlarni shakllantirish, ya'ni har bir insonning badiiy va ma'naviy dunyosini rivojlantirish hamda unga yuksak axloqiy va ma'naviy mas'uliyatni anglatish;
- axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash, odamlarni axloqiy jihatdan to'g'ri, ijobiy va jamiyatga foydali xulq-atvorni namoyon etishga va uni amalda qo'llashga o'rgatish;
- ijtimoiy muhitga moslashish, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri topishi va boshqalar bilan samarali munosabatlar o'rnatishini ta'minlash;
- o'zini bilish va o'zini anglash, shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish, o'z qadr-qimmatini anglash hamda o'ziga nisbatan hurmatni rivojlantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilarni o'z ichiga oladi: inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, tenglik va adolat tamoyillariga rioya etish; o'z-o'zini va boshqalarni hurmat qilish, boshqalarga nisbatan e'tiborli, mehribon va sabr-toqatli bo'lish; haqililik, adolat va halollik, so'z va ishda halollikni saqlash hamda yomonlikka qarshi kurashish; qaror qabul qilish va mas'uliyat, qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni zimmasiga olish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishida bir qator ijtimoiy institutlar muhim o'rin tutadi. Xususan, oila bolalarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida yetakchi omil hisoblanadi, chunki axloqiy qadriyatlar, avvalo, oilada shakllanadi. Ta'lim muassasalarida, jumladan, maktab va oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etib, o'qituvchi va murabbiylar yoshlarni axloqiy qadriyatlarga yo'naltirishda katta rol o'ynaydi. Jamoat tashkilotlari va diniy muassasalar ham ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasida muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Shuningdek, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi, ichki rivojlanishi va ma'naviy o'sishi ham ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati jamiyat rivoji va shaxsiy hayotda yaqqol namoyon bo'ladi. Axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiya topgan shaxslar jamiyatda murosaga kelish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolik mas'uliyatini anglashga qodir bo'ladi. Shu bilan birga, ma'naviy-axloqiy tarbiya insonning shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishiga, o'z faoliyatini to'g'ri yo'naltirishiga va boshqalar bilan samarali munosabat o'rnatishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr talablari ta'lim-tarbiya tizimiga ham aniq va qat'iy vazifalarni yuklamoqda. Ushbu



jarayonda ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoitlarini yaxshilash va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tarbiya va ta'lim jarayonlari o'zaro uzviy va uzluksiz asosda tashkil etilgandagina yuksak ma'naviyatli, bilimdon, jismonan va ruhan sog'lom, vatanparvar yoshlar voyaga yetadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyaning yetarlicha shakllanmaganligi bir qator omillar bilan bog'liq. Jumladan, raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlardagi axloqiy-me'yoriy qadriyatlarga zid kontent yoshlarning ma'naviy qarashlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. UNESCO (2021) ma'lumotlariga ko'ra, yoshlarning 75 % dan ortig'i internet va ijtimoiy tarmoqlardan asosiy axborot manbai sifatida foydalanadi, bu esa ularning madaniy va axloqiy qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy tarbiyaning zaifligi ham muhim muammolardan biri bo'lib, Bronfenbrenner (1979) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-ekologik nazariyaga ko'ra, oila shaxsning axloqiy shakllanishida eng muhim mikromuhit hisoblanadi. O'zbekiston yoshlari orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot (Yoshlar instituti, 2023) natijalariga ko'ra, respondentlarning qariyb 60 % i ota-onalari bilan yetarli muloqot qilmasligini bildirgan.

Shuningdek, ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ko'proq nazariy xarakterga ega bo'lishi, amaliy faoliyat bilan yetarlicha uyg'unlashtirilmaganligi ham muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyo tajribasi, xususan, Finlandiya va Yaponiya ta'lim tizimlari ma'naviy tarbiyani amaliy faoliyat bilan bog'lab olib borish samarali ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyatda iste'molchilik madaniyatining kuchayishi ham ma'naviy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiyani kuchaytirish, oilaviy tarbiyaning rolini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda jamoat tashkilotlari va talabalar klublari faoliyatini faollashtirish zarur. Xorijiy tajriba, jumladan, Kanada va Turkiyada amalga oshirilgan dasturlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ijobiy natijalar berganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish muammosi nazariy va metodologik jihatdan kompleks tahlil qilindi hamda quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Avvalo, ma'naviy-axloqiy ideallar shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi talabalarining ijtimoiy faolligi, kasbiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ma'naviy-axloqiy tarbiyaning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari o'zaro uzviy bog'liqlikda talabalarining axloqiy ongini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Sharq mutafakkirlari hamda zamonaviy pedagog olimlarning qarashlari tahlili ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi zarurligini asoslab berdi.

Tadqiqot doirasida aniqlanishicha, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning samarali metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, axloqiy bilimlarni amaliy xulq-atvor bilan uyg'unlashtirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari maxsus ishlab chiqilgan pedagogik metod va texnologiyalar talabalarining ma'naviy-axloqiy ideallari rivojlanganlik darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, interfaol ta'lim metodlari, muammoli vaziyatlar, munozaralar va reflektiv mashg'ulotlardan foydalanish talabalarining axloqiy tafakkuri hamda qadriyatlar tizimini boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Umuman olganda, tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va metodik tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini takomillashtirishga, talabalarda yuksak ma'naviy qadriyatlar va axloqiy ideallarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratishda hamda mazkur yo'nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Jo'rayev R.H. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
6. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Raximov B.X. Shaxs ma'naviyati va tarbiya muammolari. – Toshkent: Fan, 2017.
8. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
9. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
10. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.